MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
TARIX 9

1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Antioxiya jangi qachon bo‘lib o‘tgan?
A) 1097-yil B) 1453-yil C) 1040-yil D) 1071-yil

2. Mug‘ tog‘idan topilgan hujjatda o‘lkamizda nechanchi asrda ro‘y bergan voqealar haqida ma’lumotlar berilgan?
A) V asr B) X asr C) VIII asr D) XII asr

3. Mil. avv. VII asrlarda etrusklar Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun kimlarga qarshi kurash olib borgan?
A) yunon koloniyalariga B) doriylarga C) elamiylarga D) karfagenliklarga

4. O‘zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirishda hissa qo‘shgan olimni toping?
A) Muso Saidjonov B) Yahyo Olimov C) Abror Hidoyatov D) Olim Xo‘jayev

5. Katolik cherkovi o‘z hukmronligining eng cho‘qqisiga erishuvi qaysi Papa davriga to‘g‘ri keladi?
A) Innokentiy III B) Grigoriy IX C) Innokentiy II D) Lev III

6. Kimning davrida tantanali saroy marosimlari ishlab chiqilgan va imperator hokimiyatining timsollari yaratilgan?
A) Genrix I B) Otton I C) Otton II D) Otton III

7. Turk sultoni Salim I Eron shohi ittifoqchisi bo‘lgan Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashiga yo‘l ochgan g‘alabaga qachon erishgan?
A) 1517-yilda B) 1510-yilda C) 1514-yilda D) 1511-yilda

8. Tarixda sodir bo‘lgan Dandanaqon jangida kimlar to‘qnashadi?
A) saljuqiylar va g‘aznaviylar B) qoraxoniylar va qoraxitoylar
C) anushteginiylar va g‘aznaviylar D) qoraxitoylar va anushteginiylar

9. Salavkiylar davlatida strateg qanday vazifani bajargan?
A) viloyat hokimlarini nazorat qilish B) davlat mudofaasi va qo‘shinlarni tashkil etish
C) mahalliy aholidan yig‘iladigan soliqlarni nazorat qilish
D) mamlakatning istiqboldagi rejalarini ishlab chiqish

10. Qaysi xalifa hokimiyatni To‘g‘rulbekka topshirib, uni sulton deb tan olishga majbur bo‘ladi?
A) Xalifa Nosir B) Xalifa al-Qoim C) Xalifa Ma’mun D) Xalifa al-Mutavvakil

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Buddaviylik dini paydo bo‘lgan davrda jahon tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.
A) Makedoniyalik Aleksandr sharqqa yurish boshladi B) Rim Respublika deb e’lon qilindi
C) Yunon-fors urushlari bo‘lib o‘tdi D) Qadimgi Afrosiyob shahriga asos solindi

12. Franklar qirolligini imperiya deb e’lon qilinishiga olib kelgan imkoniyat berilgan javobni toping.
A) Buyuk Karlning arablar ustidan qozongan g‘alabasi B) saks qabilalari ustidan qozonilgan g‘alaba
C) Rim mahalliy zodagonlarining papaga qarshi isyon ko‘tarishi
D) Buyuk Karlning Italiyaga yurishi

13. Xalq qahramoni Juzeppe Garibaldi o‘z harbiy kuchi bilan Sitsiliya oroliga kelib tushgan yilda bo‘lib o‘tgan voqeani belgilang.
A) Avraam Linkoln prezidentlikka saylovda g‘alaba qozondi
B) Shimoliy urush Rossiya g‘alabasi bilan tugadi
C) Rossiyada krepostnoylik bekor qilindi
D) Qrim urushi tugadi

14. Qirol Artur davrida tashkil etilgan 24 a’zo qatnashadigan davra suhbati yig‘ilishi an’anasi hozirgi kunda ham Angliyaning qaysi shahrida davom etib kelinmoqda?
A) Vinchester B) Manchester C) Olster D) Nottingem

15. Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish 5 ta muhim tashabbusdan nechanchisi hisoblanadi?
A) Birinchisi B) To‘rtinchisi C) Beshinchisi D) Ikkinchisi

16. Abu Ali ibn Sino tomonidan tushunish qiyin deb ta’rif berilgan “Mo ba’da at-tabia” asari muallifini toping.
A) Abu Nasr Forobiy B) Porfiriy C) Aristotel D) Istaxriy

17. Qaysi mahalliy hokimlik tangasini old tomonida hukmdor boshi, orqa tomonida chavandoz tasviri tushirilgan?
A) Sug‘d B) Naxshab C) Xorazm D) Farg‘ona

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2019-yilning 17-20-dekabr kunlari qaysi davlatga tashrif buyuradi?
A) AQSH B) Xitoy C) Yaponiya D) Rossiya Federatsiyasi

19. 1856-yilda imzolangan qaysi shartnoma Turkiya ustidan amalda G‘arb davlatlarining “homiyligini” o‘rnatdi?
A) Parij tinchlik shartnomasi B) Andrianopol shartnomasi
C) London shartnomasi D) Sevr shartnomasi

20. Qaysi davrga kelib Sin imperiyasining istilochilik qudrati zaiflashdi?
A) XIX asr o‘rtalarida B) XVII asr o‘rtalarida C) XVII asr boshlarida D) XVIII asr oxirida

21. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, teridan tayyorlanadigan suv saqlaydigan mesh qaysi xalq tomonidan ixtiro qilingan?
A) misrliklar B) badaviylar C) sug‘dliklar D) forslar

22. IX asrga tegishli arab dengizchilariga oid hujjatda: “Xitoy ortidagi dengizning narigi tarafidagi tog‘li yerlarda oltinga boy mamlakat bor”, deb yozilgan. Arab dengizchilari tomonidan qaysi mamlakat haqida ma’lumot berilgan?
A) Koguryo B) Pekche C) Koryo D) Silla

23. Ko‘niya sultonligi kimning davrida taraqqiyotning yuqori cho‘qqisiga chiqadi?
A) Malikshoh B) Alp Arslon C) To‘g‘rulbek D) Alouddin Kayqubod

24. O‘rta asrlarda “Davlat boshqarmalari dengiz singari chuqur, ulardagi suiiste’molliklar esa osmon singari balanddir” degan maqol qaysi xalq orasida paydo bo‘lgan?
A) xitoy B) hind C) arab D) fors

25. Xalifa Usmon buyrug‘i bilan Qur’oni karim matni to‘planib, bir butun kitob shakliga keltiriladi va turli o‘lkalarga tarqatiladi. Hozirgi kunda ulardan biri muqaddas yodgorlik sifatida yurtimizning qayerida saqlanmoqda?

A) Toshkentdagi Tillashayx masjidida
B) Toshkentdagi Mo‘yi muborak madrasasida
C) Toshkentdagi Baroqxon madrasasida
D) Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasasida

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. VI asrga oid bo‘lgan San Vitale bazilikasi qayerda bunyod etilgan?

A) Fransiya B) Vizantiya C) Italiya D) Germaniya

27. “Avesto”ning 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan yilda sodir bo‘lgan voqeani toping.

A) Berdaq tavalludining 170 yilligi nishonlandi
B) Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi
C) Jaloliddin Manguberdi ordeni ta’sis etildi
D) Najmiddin Kubro tavalludining 800 yilligi nishonlandi

28. Eratosfen tuzgan xaritada qaysi hududlar tasvirlangan?

A) G‘arbiy Yevropa, Sharqiy Afrika va Markaziy Osiyo
B) G‘arbiy Yevropa, Janubiy Afrika va Janubiy Osiyo
C) G‘arbiy Yevropa, Sharqiy Afrika va Sharqiy Osiyo
D) Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo

29. Ikkinchi jahon urushi davrida yetim bolalarni asrab olgan Sh. Shomahmudov va B. Akramovalar qaysi orden bilan mukofotlanganlar?

A) “Hurmat belgisi” B) “Matonat madhiyasi” C) “Jasorat belgisi” D) “El-yurt hurmati”

30. Ajinatepa yodgorligidan topilgan budda haykali hozirgi kunda qayerda saqlanadi?

A) Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida
B) Parijdagi Luvr muzeyida
C) Samarqandagi Milliy arxeologiya muzeyida
D) Dushanbedagi Milliy arxeologiya muzeyida

31. “Orol dengizi kattaligi bo‘yicha qachonlardir dunyodagi to‘rtinchi ko‘l edi. Mening safarim sayyoramizga nisbatan e’tiborsizlikning fojiaviy asoratlarini eslatib qo‘ydi. Ayni paytda oqilona qo‘llab-quvvatlash yordamida jamoatchilik ushbu holatni o‘zgartira olishi mumkinligiga ham shohid bo‘ldim”. Ushbu fikr kimga tegishli?

A) Kofi Annan B) Antoniu Guterrish C) Pan Gi Mun D) Federiko Mayor

32. Afrika tarixiga doir quyidagi tarixiy ma’lumotlarning qaysilari bir yilda sodir bo‘lgan?

1. Jazoirliklar yo‘lboshchisi Abdulqodir qo‘shinining fransuzlar tomonidan qurshab olinishi va Abdulqodirning jangda halok bo‘lishi; 2. Qora tanli ozodlikka erishgan sobiq qullarning Liberiya ozod davlati tuzilganligini e’lon qilinishi; 3. Kassa Efiopiyani yagona davlatga birlashtirib, o‘zini imperator deb e’lon qilishi; 4. Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan Kassa hokimiyati ag‘darilishi; 5. AQSH da mustaqillikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakatining boshlanishi.

A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2, 4 D) 3, 5

33. Koreyada kimning davrida asilzodlar va oddiy xalqni “tenglashtirish” maqsadida xalq uchun qora rangli oyoq kiyim kiyish taqiqlanadi?

A) Xon Gyon Ne B) Li Xa In C) Li Sun Sin D) Yongjo

34. Bir yilda sodir bo‘lgan voqealarni toping.
1) Abu Rayhon Beruniy tomonidan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari yozib tugallangan; 2) Genrix II Rimda imperator tojini kiyadi: 3) Polsha cherkovi arxiyepiskoplik rutbasini olib, nemis cherkovidan mustaqillikka erishadi; 4) Gurganchda Ma’mun akademiyasiga asos solinadi; 5) Otton III Rimda toj kiyadi.
A) 1, 3 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 1, 4

35. Eftaliylar tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealardan mos kelmaydigan javobni toping.
A) Eftaliylar V asr o‘rtalarida mamlakatimiz hududiga shimoldan kirib kelganlar
B) Eftaliylar davlati yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan
C) Eftaliylar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan xalqaro savdoda faol qatnashgan
D) Eftaliylar davlati tarkibiga O‘rta Osiyodan tashqari Sharqiy Turkiston, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston va hozirgi Pokiston hududlari kirgan

36. 1832-yilgi Buyuk Britaniyadagi parlament islohotlari natijasida yirik sanoat markazlariga parlamentdan 144 o‘rin ajratilishi ...
A) yirik yer egalari - lendlordlar noroziligiga sabab bo‘ldi
B) sanoat burjuaziyasining siyosiy jihatdan hukmronligini mustahkamladi
C) qo‘zg‘olonlarning avj olishiga olib keldi
D) sanoat burjuaziyasining keskin noroziligiga sabab bo‘ldi

37. Quyidagilardan qaysi biri qirol Yongjo davrida e’lon qilingan?
1. Dehqonlarning katta yer egalariga shaxsiy qaramligining bekor qilinishi; 2. Qul ayolning farzandi ozod inson bo‘lishi haqidagi deklaratsiya; 3. Mamlakatda ayollarning og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishining qat‘iy man etilishi; 4. Qul ayolning nevarasi ozod inson bo‘lishi haqidagi deklaratsiya; 5. Mamlakatda katta yer egaligining tugatilishi va barcha yerlarning davlat tasarrufiga olinishi.
A) 2, 5 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 1, 4

38. G‘arbiy turk xoqonligida viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning “yabg‘u” unvoni berish tartibini qaysi xoqon amalga oshirgan?
A) To‘n yabg‘u B) Bumin C) Istami D) Qorachuren

39. Mustaqil hokimlik bo‘lgan Toxaristonni chegaralarini aniqlang.
1) g‘arbda; 2) janubda; 3) shimolda; 4) sharqda
a) Pomir; b) Hindikush; c) Murg‘ob va Xerirud vodiysi; d) Hisor; e) Sharqiy Turkiston
A) 1-c; 2-e; 3-a; 4-d B) 1-c; 2-a; 3-e; 4-b C) 1-e; 2-b; 3-d; 4-a D) 1-c; 2-b; 3-d; 4-a

40. Safaviylar xazinaga tushadigan daromadlar kamayishining oldini olish maqsadida XVIII asrdan boshlab qanday yo‘l tutganliklarini aniqlang.
A) savdo-sotiqdan keladigan tushumni ko‘paytirish
B) dehqonlar to‘laydigan soliqlarni oshirish
C) davlat yerlarini sotish va dehqonlar sharoitini yaxshilash
D) katta ko‘lamdagi urushlar olib borish va mustamlakachilik